

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

BAXTIYOROV OYBEK EGAMBERDI O‘G‘LI

**TURBAY MAYDONI MAGMATIK, METASOMATIK HOSILALARI VA
ULARNING MA‘DANDORLIGI (SHARQIY BUKANTOV)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological-mineralogical sciences**

Baxtiyorov Oybek Egamberdi o‘g‘li

Turbay maydoni magmatik, metasomatik hosilalari va ularning ma‘dandorligi
(Sharqiy Bukantov)..... 3

Бахтиёров Ойбек Эгамберди угли

Магматические, метасоматические образования Турбайской площади
(Восточный Букантау) и их рудоносность..... 21

Bakhtiyorov Oybek Egamberdi ugli

Magmatic, metasomatic formations of the Turbay area (Eastern Bukantau) and
their ore content 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

“GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA INSTITUTI” DM

BAXTIYOROV OYBEK EGAMBERDI O‘G‘LI

**TURBAY MAYDONI MAGMATIK, METASOMATIK HOSILALARI VA
ULARNING MA‘DANDORLIGI (SHARQIY BUKANTOV)**

04.00.03 – Geotektonika va geodinamika. Petrologiya va litologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/GM205 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti Davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ingeo.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Amirov Elmurod Mansuriddin o'g'li geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Rasmiy opponentlar:	Mamarozikov Usmonjon Dovronovich geologiya-mineralogiya fanlari doktori Karimova Feruza Baxtiyarovna geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11" aprel soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 10064, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT: ingeo@exat.uz; E-mail: ingeo@ingeo.uz).

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (24-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 10064, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505).


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" martda tarqatildi.

(2025-yil "26" martdagi 24-raqamli reestr bayonnomasi.)




X.D. Ishbayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., professor


M.S. Karabayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi v.v.b., g.-m.f.d., professor


P.S. Sultonov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi seminar raisi, g.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida soʻnggi yillarda asl va nodir metalli konlarni bashoratlash, maʼdan hosil boʻlishining zamonaviy ilmiy asoslarini ishlab chiqish maqsadida alohida maydonlardagi magmatik, metasomatik hosilalarni oʻrganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu hosilalarning petrologik-geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari ularning hosil boʻlish sharoitlari, foydali qazilma konlarini shakllanishidagi roli kabi bir qator muammolarni hal qilishda muhim axborot manbasi boʻlib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida magmatik hosilalarning formatsion tahlili, moddiy tarkibi va ular bilan bogʻliq turli metasomatitlar, hamda endogen maʼdanlashuvning genetik bogʻliqligini aniqlash boʻyicha bir qator maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, nordon tarkibli intruzivlar va turli daykali hosilalar, hamda metasomatitlarning asl va nodir metalli maʼdanlashuv bilan munosabatlari, murakkab geologik tuzilishga ega boʻlgan maydonlarda endogen maʼdanli konlarni qidirishda ilmiy asoslangan petrologik-geokimyoviy mezonlar ishlab chiqishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Respublikamizda Markaziy Qizilqum togʻ-kon mintaqasining Bukantov togʻlaridagi asl-nodir metalli konlarda intruziv va metasomatik togʻ jinslarini oʻrganish boʻyicha muayyan tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, intruziv hosilalarning petrologik-geokimyoviy, mineralogik tarkibi, metasomatitlarning endogen maʼdanlashuv hosil boʻlishidagi roli aniqlandi. Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasida “Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish”¹ boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Bukantov togʻlaridagi intruziv hosilalar va ular bilan bogʻliq boʻlgan metasomatitlarning petrologik-geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash va qidiruv belgilarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi “Maʼmuriy islohotlar doirasida togʻ-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 116-sonli Farmoni, 2021-yil 21-apreldagi “Geologiya sohasiga investitsiyalarni faol jalb etish, tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va Respublika mineral-xom ashyo bazasini kengaytirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi 5083-son Qarori, 2020-yil 8-iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qoʻmitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 4740-son Qarori, 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 – yillarga moʻljallangan “Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi 60-sonli Farmoni va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi mineral-xom ashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturlarini shakllantirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” gi PF-60-son Farmoni.

haqida” gi 297-son Qarori hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot maydonida intruziv jinslar keng tarqalgan bo‘lib, ular har xil yoshdagi yotqiziqlar ichida shtok ko‘rinishidagi tanalar va turli tarkibdagi daykalardan iborat. Ular bilan bog‘liq holda metasomatik jinslar ham keng rivojlangan. Turbay tog‘laridagi ushbu magmatik va metasomatik hosilalar o‘tgan yillar davomida I.H.Hamrabayev, X.R.Rahmatullayev, A.K.Pyatkov, A.A.Shapkin, E.P.Izox, Z.A.Yudalevich, Y.B.Aysanov, I.V.Mushkin, S.Y.Lapidus, V.A.Borisov, O.I.Kim, V.N.Ushakov, V.D.Gordon, S.I.Ilin, A.A.Rubanov, F.K.Divayev, M.S.Karabayev, E.M.Amirov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Shu vaqtgacha Turbay tog‘lari hududida turli mavzudagi tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramasdan magmatik, postmagmatik hosilalar va ma‘danlashuvga tegishli bo‘lgan bir qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda. Jumladan, hudud magmatizmidagi so‘ngi bosqich daykalari, intruziv tog‘ jinslari hamda metasomatitlar moddiy tarkibining o‘ziga xos xususiyatlari, minerallarining xossalari va hududdagi magmatik jinslarning ma‘danlashuvga aloqasi masalalarida aniqlik kiritilishi talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining: 26/2023-sonli “Intruziv hosilalar, metasomatitlar va ma‘danlashuvning o‘zaro munosabatlari Markaziy Qizilqumda turli xil ma‘danlashuvni qidiruv va bashoratlashning petrometallogenik asosi sifatida” (2023-2024 yy.) va 27/2023-sonli “Yuqori aniqlikdagi tadqiqot usullarini qo‘llash orqali Turbay koni ma‘danlarining mineral tarkibini, asosiy va hamroh komponentlarning uchrash shaklini aniqlash” (2023-2024 yy.) mavzularidagi shartnomaviy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Turbay maydonidagi granitoid intruzivi va u bilan bog‘liq metasomatitlar hamda ma‘danlashuvning moddiy tarkibini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turbay maydonidagi intruziv hosilalarning petrografik, mineralogik, petrogeokimyoviy xususiyatlarini aniqlash;

metasomatitlarning petrografik, petrokimyoviy xususiyatlarini va hosil bo‘lish sharoitlarini asoslash;

endogen ma‘danlashuvning granitoidli intruzivlar va turli tarkibli metasomatik hosilalar bilan genetik bog‘liqligini o‘rganish;

yondosh maydonlarda yashirin oltin ma'danlashuvini qidirishning petrologik-geokimyoviy mezonlarini ajratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Sharqiy Bukantov tog'laridagi Turbay maydonining intruziv va metasomatik hosilalar olingan.

Tadqiqotning predmeti Turbay maydonidagi intruziv tog' jinslari, ular bilan bog'liq metasomatitlar, turli tarkibli daykali hosilalar va ma'danlashuv hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda dala sharoitida petrografik-mineralogik kesmalar o'tilgan, batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, tog' jinslaridan olingan namunalarning mineral tarkibi shaffof va silliqlangan shliflar tavsifi bo'yicha "Nikon ECLIPSE LV100N POL" qutblangan mikroskoplarida, hamda JXA-8800R "Superprobe Jeol" elektron-mikroanalizatorida, kimyoviy elementlarning miqdori mass-spektrometr ICP-MS tahlillari yordamida o'rganilgan hamda petrografik, mineralogik, petrokimyoviy va geokimyoviy tadqiqotlar natijalari kompyuter dasturlari (Excel, Petro Explorer) yordamida maxsus diagrammalar tuzilgan va tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

magmatik va metasomatik hosilalarning petrografik, mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari aniqlangan ba tadqiqot maydoni uchun birinchi marta magnezial va ohakli skarn turlari ajratilgan;

Turbay maydonida shakllangan metasomatik jinslarining petrokimyoviy xossalari ochib berilgan ba metasomatit turlarining hosil bo'lishi birlamchi tog' jinslarning kimyoviy tarkibiga muhim darajada bog'liq ekanligi isbotlangan;

turli tarkibli magmatik va metasomatik hosilalarni petrogeokimyoviy tavsiflash orqali intruziv fazalarining asl- va nodir metalli ma'danlashuvlarga bo'lgan petrometallogenik ixtisoslashuvi aniqlangan, hamda asosiy ma'dan mujassam qiluvchi metasomatit turlari ajratilgan;

ma'dan-metasomatik hosilalarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari aniqlangan va ular asosida tadqiqot maydonida yashirin oltin ma'danlarini qidirish uchun ilmiy asoslangan bashorat-qidiruvning petrometallogenik mezonlari majmuasi (magmatik, metasomatik, mineralogik, geokimyoviy) ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Turbay maydonidagi magmatik, metasomatik hosilalarning petrografik turlari va moddiy tarkiblari bo'yicha yangi ma'lumotlar olingan;

Turbay koni ma'danlari tarkibida bir qator yangi minerallar aniqlangan va ularning tarkibiy xususiyatlari ochib berilgan;

magmatik va metasomatik hosilalarning asl va nodir metall elementlariga mineralogik va geokimyoviy ixtisoslashuvi aniqlangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida an'anaviy usullar bilan birga zamonaviy petrografik, mineralogik va geokimyoviy usullar va analitik uskunalari qo'llanilgan. Jumladan - jins hosil qiluvchi, ma'danli minerallarining uchrash shakllari va moddiy tarkiblari "Nikon ECLIPSE LV100N POL" qutblangan mikroskopida (Nikon, Yaponiya) hamda "JXA-8800R Superprobe" elektron-mikroanalizatorida (Jeol, Yaponiya) - aniqlangan. Olingan natijalar quyidagi majmuaviy dala va laboratoriya tadqiqotlari

materiallariga asoslangan: petrografik-mineralogik kesmalar (1500 m) tuzilgan va 45 ta batafsil geologik kuzatuv nuqtalari tavsiflangan, namunalar bo'yicha 19 ta kimyoviy (silikat) va 319 ta mass-spektrometrik tahlillar bajarilgan, ma'danli minerallarning uchrash shakllari va moddiy tarkiblarini aniqlash uchun mikroanalizatorida 150 ga yaqin elektron-mikroanalizator tahlillari o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Turbay maydonidagi magmatik hosilalar va ular bilan bog'liq bo'lgan metasomatitlarning mineralogik – petrografik, petrogeokimyoviy xususiyatlari hamda tog' jinslarining hosil bo'lish sharoitlari va o'zaro ketma – ketlik munosabatlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududdagi intruziv hosilalarning tarkibiy xususiyatlari va ma'danlashuvga aloqadorligi ochib berilganligida o'z ifodasini topgan, magmatik tog' jinslarining ajratilgan geokimyoviy ixtisoslashuvi hududda qimmatbaho va nodir metalli konlarni bashoratlash ishlarida ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turbay maydonida magmatik va metasomatik hosilalarning petrologik-petrogeokimyoviy, mineralogik xususiyatlarini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Turbay maydonidagi magmatik hosilalar va ular bilan bog'liq bo'lgan metasomatitlarning mineralogik-petrografik, petrogeokimyoviy xususiyatlari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 10-oktabrdagi 08-3828-son ma'lumotnomasi). Natijada, magmatik va metasomatik tog' jinslarini tizimlashtirish va o'zaro yoshi bo'yicha ketma - ketlik munosabatlarini aniqlashga imkon bergan;

metasomatik hosilalarning hosil bo'lish sharoitlari va mineral tarkibi "O'zbek geologiya qidiruv" AJ ning amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 10-oktabrdagi 08-3828-son ma'lumotnomasi). Natijada, metasomatik hosilalar mineral hosil bo'lishining magmatik va postmagmatik bosqichlarida hosil bo'lganligini tavsiflash, ma'dandorligini aniqlash imkonini bergan;

ma'danlarning mineralogik-geokimyoviy xususiyatlari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 10-oktabrdagi 08-3828-son ma'lumotnomasi). Natijada, kondagi oltin ma'danlarining turli tog' jinslari bo'ylab rivojlangan metasomatik o'zgarish zonalarida, kvars tomirlarida tarqalganligini aniqlashga va ulardan qidiruv-bashoratlash mezonlari sifatida foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va nashr etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy tadqiqot ishi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ishlar chop etilgan, ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi ilmiy natijalarni chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 tasi respublikada, 1 tasi xorijda, ilmiy

ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlarida 5 ta, jumladan 3 tasi respublika, 2 tasi xalqaro.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar (jadvallar) dan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilayotgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan zaruriyat, maqsad va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiq etilganligi va qo'llanilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turbay maydonining o'rganilish holati, tadqiqotlar uslubi va geologik tuzilishi”** deb nomlangan birinchi bobi muammoning o'rganilish holati, tadqiqotlar uslubi, hududning geologik tuzilishi va ma'dandorligiga bag'ishlangan.

Hududning geologik o'rganilish tarixida A.K.Buxarin, T.Xayrulin, Z.S.Rumyanseva, Y.L.Lixachev, Z.M.Abdumuzimova, K.K.Pyatkov, I.H.Hamrabayev, M.M.Purkin, M.T.Xon, A.A.Rubanov, X.R.Raxmatullayev, E.D.Karpov, M.K.Turapov, M.M.Pirnazarov, R.X.Mirkamalov, T.N.Dolimov, T.S.Shayakubov, E.P.Izox, Z.A.Yudalevich, F.K.Divayev, I.V.Mushkin, M.S.Karabayev, E.M.Amirov va boshqa ko'plab tadqiqotchilar Markaziy Qizilqumning, shu jumladan, Bukantov tog'larining geologik tuzilishi, magmatizmi va ma'dandorligini o'rganishga katta hissa qo'shishgan. I.H.Hamrabayev (1958, 1968) birinchi bo'lib hududning magmatik va ular bilan bog'liq ma'dan hosil bo'lish jarayonlarining asosiy xususiyatlarini aniqlagan.

Granitoidlarning formatsion tahlillari E.P.Izox, Z.A.Yudalevich va b. (1975) tomonidan bajarilgan. G'arbiy O'zbekistonning xususan Bukantov tog'larining granitoidlari Z.A.Yudalevich tomonidan batafsil o'rganilgan. Ular intruziv massivlarning tuzilishi, tarkibi va ma'danlashuv bilan o'zaro bog'liqligini tavsiflab o'tishgan. Bukantov tog'larida Bokali (C₂), Oltintov (C₂-P₁) granitoidli, Saritov adamellit-granitli, Sautbay gabbro-siyenit-granosiyenitli majmualar ajratilgan.

Sharqiy Bukantovning (Turbay tog'lari) geologik tuzilishida paleozoy, mezozoy va kaynozoy yotqiziqlari ishtirok etadi. Paleozoy hosilalari Janubiy Bukantov strukturaviy – formatsion zonasi (SFZ) tarkibiga kiradi. Uning doirasida Kokpatas, Qorashox va Bo'ztoy-Oqjebes strukturaviy – formatsion kichik zonalari (SFZ) ajralib turadi. Kokpatas kichik zonasida tokembriyning kokpatas svitasi (terrigen-karbonat-kremniyli) va ordovik-silurning ko'ksoy svitasi (terrigen); Qorashox kichik zonasida esa o'rta karbonning (vulkanogen-cho'kindi) yotqiziqlari rivojlangan.

Turbay tog'larida intruziv tog' jinslari keng tarqalgan. Tadqiqot maydonida quyidagi intruziv majmualarning hosilalari ajratilgan: Saritov trondemit-adamellitli majmuasi C₃-P_{1s}, Sautbay monsonit-siyenit-granosiyenitli majmuasi C₃-P_{1st}, Markaziy Bukantov granodiorit-diorit-porfirit daykali P cb, va Janubiy tiyon-shon daykali majmualari.

Bukantov tog'lari janubiy Tiyon-Shonning cho'zinchoq qoplamali – burmali kamarining tarkibiga kiradi va uning shimoliy qismida joylashgan (Biske, 1996). Strukturaviy jihatdan o'rganilyotgan hudud kaledon – gersin (varis) burmali majmuasiga va uni keskin nomuvofiq qoplovchi alp ustki chexolga bo'linadi.

Konning geologik tuzilishida kokpatas svitasining metamorflashgan tog' jinslari ishtirok etadi. Kon doirasida svitaning yuqori qismida hosil bo'lishi turlicha bo'lgan ikki qavat ajratilgan: quyi qism – asosan kremniyli (ftanitli) tog' jinslaridan tashkil topgan bo'lib, konning shimoliy qismida keng tarqalgan va qoplovchi qism – konning janubiy qismini tashkil etgan terrigen hosilalar. Metaterrigen qatlam almashinib yotuvchi uglerod-kvars-slyudali slaneslar, yashil-kulrang alevroslaneslar va mayda donali qumtoshlarning kichik qatlamchalaridan tashkil topgan. Qora plitkasimon mikrovarsitlar asosan maydonning shimoliy qismida uchraydi va ular turli yo'nalishdagi kvars-sulfidli tomirlar bilan kesishadi.

Turbay konidagi ma'lum ma'danli tanalar 1200 x 500 m o'lchamdagi maydonda joylashgan. Ma'dan tanalari uzunchoq linzasimon shakllarni hosil qiladi va g'arb, shimoliy-g'arbiy yo'nalishdagi (290°) yer yoriqlari bo'ylab cho'zilgan. Oltin ma'danlashuvi chiziqli-shtokverkli zonalar bilan bog'liq. Sulfidlar miqdori bo'yicha kon kam sulfidli (2-5% gacha) hisoblanadi. Sulfid minerallaridan asosan pirit, arsenopirit kamroq pirrotin, xalkopiritlar uchraydi. Kon maydonida keng tarqalgan boshqa ma'danli minerallardan tashqari sheelit qayd etiladi. Konning janubiy qismiga qarab oltin-kumushli ma'danlashuv xissasi oshib boradi va ularda sulfidlar tarkibida kumushning sulfat tuzlari, sulfidlari (argentit) keng tarqalgan. Ma'danlarning asosiy foydali komponenti oltin hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi – **“Turbay maydoni intruziv hosilalarining petrogeokimyoviy tavsifi va ma'dandorligi”** ga oid masalalarni tavsiflashga bag'ishlangan bo'lib, unda intruzivlar geologik-petrografik tavsifi, petrokimyosi, geokimyoviy xususiyatlari hamda ma'dandorligi ochib berilgan.

Sharqiy Bukantov tog'larida tarqalgan magmatik hosilalar quyidagi majmualar bilan ifodalanadi: 1) Turbay metaabsarokit-shoshonit-latit subvulqonik majmuasi – PR₃? Tb; 2) Kiyiktov intruziv majmuasi (σC-Dk), 3) Tubabergen pikrit-diabaz subvulqonik majmuasi D₂-C₂ t; 4) Qorashox subvulqonik traxibazalt-traxiandezit majmuasi – C₂ kr; 5) Saritov trondemit-adamellit majmuasi – C₃-P₁ s; 6) Sautbay monsonit-siyenit-granosiyenit majmuasi C₃-P₁ st; 7) Markaziy-Bukantov dioritli majmuasi (γδ, δπ, χ P cb); 8) Janubiy tiyon-Shon ishqorli bazaltoid va lamprofir majmuasi – Ev T₂₋₃ ju (Mushkin, 1973; Nazarov, Mirkamolov, Divayev va b., 2022).

Turbay koni hududida ham magmatik hosilalar keng tarqalgan, sababi maydon yuqori darajada magma o'tkazuvchanligi bilan ajralib turuvchi Turbay-Saritov zonasida joylashgan. Tadqiqot obyektida yuqorida keltirilgan magmatik majmualardan uchtasi qayd etilgan. Quyida intruziv hosilalarning tavsifi shu bo'linish bo'yicha keltirilgan.


Saritov trondemit-adamellit majmuasi (C₃-P₁ s) birinchi marta 1981-yilda Z.A.Yudalevich va b. tomonidan ajratilgan, keyingi yillarda Y.B.Aysanov va b. (1984), Ushakov va b. (1991), V.A.Borisov, A.A.Rubanov va b. (1989, 1993). Z.A.Yudalevich, F.K.Divayev va b. (1990, 1993, 1997) va b. tomonidan

o'rganilgan. U hududdagi asosiy ma'danlashuvlar bilan aloqador bo'lgan granitoidlarni o'z ichiga oladi. Maydonda majmuaga taalluqli jinslar shtok shaklidagi, kenglik bo'yicha cho'zilgan Turbay intruzivi (4,0x4,0 km) va subkenglik yo'nalishidagi bir qancha granitoid tarkibli daykalardan iborat.

Turbay intruzivi (A.A.Rubanov bo'yicha G'arbiy Turbay) asosan granit, granodiorit tarkibli, markaziy qismi granitlarning ikki slyudali va leykokratli turlaridan iborat. Intruzivning asosiy fazasini tashkil qilgan granodiorit-porfirlarning yoshi Rb-Sr usuli bo'yicha 282-291 mln. yil, qo'shimcha fazadagi granit-porfirlarning yoshi 276-283 mln. yilga to'g'ri keladi (Ronkin, 1998).

Granodiorit-porfirlar maydondagi asosiy fazada tarqalgan magmatik tog' jinsi hisoblanib, ular asosan shtok shaklida uchraydi. Granodiorit-porfirlar Turbay konida asosan seritsitlashgan, xloritlashgan holatda kuzatiladi. Ularning mineral tarkibi (%): porfir ajralmalari – 25-30 (kvars – 10-12, plagioklaz – 10-12, kamroq to'liq xloritlashgan va leykoksenlashgan biotit – 3-5), asosiy massasi mikrodonali kvars-dala shpatli – 70-75, leykoksen – 0,5-1. Strukturasi porfirli, asosiy massasi mikrodonali; teksturasi yaxlit (1a,d-rasm).

Qo'shimcha faza granit-porfirlar tarkiban plagioklazning kaliyli dala shpatidan, biotitning esa rogovaya obmankadan keskin ustunligi bilan ajralib turadi. To'q rangli minerallar miqdori 5-10% oralig'ida uchraydi. Magmatik tanada keng o'zgarish oreollari (300 m dan 900 m gacha) kuzatiladi, jumladan amfibol-rogovikli va muskovit-rogovikli kontakt metamorfizm zonallari hosil bo'lgan. Mineral tarkibida plagioklaz o'zgaruvchan zonalli. Tarkibi bo'yicha labradordan (An_{53}) asosan oligoklazgacha (An_{28}) bo'lgan o'zgaradi (1b,e-rasm).



1-rasm. Turbay intruzivi tog' jinslari struktura-teksturaviy xususiyatlari; a-b – asosiy faza granodiorit-porfirlari, d-e – qo'shimcha faza granit-porfirlari; (a,b, – parallel nikolda, d,e – kesishgan nikolda keltirilgan). Ko'rish doirasi a,b – 2,5 mm, b,e – 1,2 mm.

Granit-porfirlar maydonda eng ko‘p tarqalgan magmatik tog‘ jinsi hisoblanadi. Ular och kulrang-yashil rangda bo‘lib, gidrotermal o‘zgargan va kuchli sulfidlashgan (arsenopirit, pirit), kam berezitlashgan. Mineral tarkibi (%): porfir ajralmalari – 20-25 (kvars, plagioklaz, xloritlashgan biotit, pirit), asosiy massada kvars, xloritlashgan va seritsitlashgan dala shpati. Strukturasi porfirsimon; teksturasi yaxlit.

Markaziy-Bukantov granodiorit-diorit-porfirit daykali majmuasi ($\gamma\delta$, $\delta\pi$, χ Pcb) birinchi marta 1993 - yilda S.Y.Lapidus va b. tomonidan ajratilgan, keyingi yillarda A.K.Pyatkov va b. (2003) tomonidan o‘rganilgan. Majmua tarkibiga perm davri intruziv magmatizmining oxirgi bosqichida hosil bo‘lgan daykalar kiradi. Kokpatas ma‘dan maydonida diorit-porfirit va granodiorit-porfirlar tarkibdagi daykalar keng tarqalgan bo‘lib, bu holat oltin minerallashuvining ushbu hosilalar bilan o‘zaro aloqasi borligi haqidagi fikrga asos bo‘lgan. Ular subkenglik yo‘nalishi bo‘yicha qariyb 60 km ga cho‘zilgan bo‘lib, Kokpatas - Turbay - Sautbay - Saritov ma‘dan zona yo‘nalishida Kokpatas, Turbay ma‘dan tugunlarini hosil qiladi.

Diorit-porfirit asosiy massasi xloritlashgan, seritsitlashgan, limonitlashgan, leykoksenlashgan. Mineralogik tarkibi (%): porfir ajralmalari 35-40 (plagioklaz va biotit), asosiy massada plagioklaz (albit), xlorit, kvars, seritsit, leykoksen, rutil, kam miqdorda pirit. Strukturasi porfirsimon, teksturasi yaxlit.

Granodiorit-porfirlarning mineralogik tarkibi (%): zonallashgan plagioklaz 50-55, kvars 15-20, kaliyli dala shpati 5-10, biotit 10-15, amfibol 5-7, aksessor sfendan tashkil topgan. Tog‘ jinsining rangi to‘q kulrang strukturasi porfirsimon, teksturasi yaxlit.

Lamprofirlar. Spessartit tog‘ jinslari tarkibidagi ilmenitning yupqa donalari, seritsitlashganligi bilan tavsifalanadi. Mineral tarkibi (%): plagioklaz – 50-55 (jadal seritsitlashgan), rogovaya obmanka – 40-45, juda kam miqdorda ilmenit (xlorit bo‘yicha). Strukturasi lamprofirli, teksturasi ofitli (karkas-g‘ovakli).

Maydonda kersantit daykalari juda kam tarqalgan bo‘lib, ular massasi jadal leykoksenlashgan. Mineralogik tarkibi (%): plagioklaz – 40-45, biotit – 35-40, kvars – 10-15, apatit – 1-1,5. Strukturasi lamprofirli, teksturasi yaxlit.

Janubiy tiyon-shon ishqorli bazaltoid va lamprofir majmuasi (Ev T_{2-3} ju). Birinchi marta 1977-yilda I.V.Mushkin va b. tomonidan ajratilgan, keyingi yillarda Z.A.Yudalevich va b. o‘rganishgan. Ular daykalar va portlash trubkalari shaklida namoyon bo‘lgan. Majmua ikkita fazaga ajraladi. Birinchisi – olivinli traxibazaltlar asosan diatrema ko‘rinishida, ikkinchisi - lamprofirlar asosan daykalar ko‘rinishida uchraydi (Nazarov J.A. va b., 2022f). Daykalar submeridional va shimoliy- sharqiy yo‘nalishda joylashgan. Ko‘pgina daykalarining qalinligi 0,5-2,0 m oraliq‘ida, ba‘zan uzunligi ikki metrdan o‘n metrgacha, kamdan-kam hollarda 1-1,5 km gacha cho‘zilgan. Ular asosan tik holatda yotadi.


Minetta. Minetta daykalari mineralogik tarkibi (%): dala shpati – 50-55, biotit 30-35, (ortoklaz + plagioklaz + klinopiroksen) – 5-7, olivin – 2-3. Strukturasi lamprofirli, teksturasi yaxlit.

Turbay konida tarqalgan intruziv tog‘ jinslarining kimyoviy tarkibini aniqlash uchun olingan namunalar laboratoriyada kimyoviy tahlil qilindi va petrokimyoviy

koefitsiyentlari, normativ tarkibi hisoblab chiqarildi. Kimyoviy tahlil natijalari intruziv tog' jinslarining tasniflash maydonlarida tutgan o'rnini aniqlash maqsadida TAS-diagrammasiga ($\text{SiO}_2\text{-Na}_2\text{O}+\text{K}_2\text{O}$) tushirildi va o'rganilayotgan hududdagi magmatik tog' jinslari asosan normal va o'rta ishqorli (subishqorli) ekanligi aniqlandi (2a-rasm). Kersantitlar qolgan daykalardan keskin farq qiladi va ular monsoqabbrolar maydonida yotibdi, sababi mineralogik tarkibida biotit va kaliy-natriyli dala shpatlarining miqdori ko'pligidir.

Turbay maydonida tarqalgan magmatik tog' jinslari ishqorlilik darajasiga ko'ra asosan kaliyli va kaliy-natriyli seriyaga mansubligi aniqlandi.

Petrologik tadqiqotlarda yuqorida keltirilgan diagrammalardan tashqari, magmatik eritmaning petrogenezini tuzishda qo'llaniladigan turli binar diagrammalar mavjud. Ular orasida Xarker diagrammasi keng foydalaniladi. Bunda asosiy petrogen va kremniy oksidlarining miqdorlari solishtirildi (2b-rasm).



2-rasm. Turbay maydonida tarqalgan magmatik tog' jinslari tarkibining TAS-diagrammasida ($\text{SiO}_2\text{-Na}_2\text{O}+\text{K}_2\text{O}$) (Sharpenok va b., 2013) va Xarker diagrammasida tutgan o'ri. 1-granodiorit-porfir (asosiy faza); 2-granit-porfir (qo'shimcha faza); 3 – granodiorit-porfir daykasi; 4- diorit-porfirit daykasi; 5-spessartit daykasi; 6-kersantit daykasi.

Xarker diagrammasidagi alyuminiy, temir, magniy titan, kaliy, kalsiy va natriy oksidlarining tarqalishi tahlili shuni ko'rsatadiki, Turbay maydonidagi granitoidli magmatik tog' jinslari bir evolyutsion chiziq bo'ylab yotadi. Bu esa ushbu nordon tarkibli magmatik tog' jinslarining hosil bo'lishi yagona magmatik o'choq bilan bog'liqligini anglatadi. Tadqiqot obyekti hisoblangan Turbay maydoni tog' jinslari tarkibidagi kimyoviy elementlar tarqalish miqdorini zamonaviy usullar (mass-spektrometr ICP-MS) yordamida o'rganildi va ma'danli hamda ularga hamroh elementlar miqdori ko'rsatkichlari elementlar klarkiga nisbati aniqlandi (1-jadval) va nisbat ko'rsatkichlarning grafik ko'rinishi tuzildi.

Turbay maydonida tarqalgan intruziv tog' jinslari geokimyoviy xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Saritov majmuasi asosiy fazasi granodiorit-porfirlar tarkibida quyidagi elementlarning klark konsentratsiya (KK) ko'rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligi bilan tavsiflanadi: molibden, qalay, volfram, reniy va uran (KK – 5-19 gacha). Ushbu majmua qo'shimcha fazasi granit-porfirlarida esa mis,

rux, galliy, margimush, selen, kumush, surma, oltin va vismut elementlarining KKsi (6-23 gacha). Markaziy-Bukantov granodiorit-diorit-porfirit daykali majmuasiga tegishli diorit-porfiritlar tarkibida margimush, molibden, kumush, surma va oltin elementlarining KKsi (5-7); Janubiy Tiyon-Shon ishqorli bazaltoid va lamprofir majmuasining kersantit va spessartitlarida margimush, kumush, molibden, selen, volfram KK miqdorlari nisbatan yuqoriroq (4-6 gacha).


1-jadval

Turbay maydonida tarqalgan intruziv tog' jinslari va daykali hosilalarda ba'zi elementlarning tarqalish miqdori (g/t)

	Klark	1*(9)		2*(9)		3*(7)		4*(6)		5*(6)		6*(5)	
		Elementlar o'rtacha miqdori	Klark konsentrat-siyasiga nisbati										
Cu	55	72,16	1,3	485	8,5	87,74	1,60	154,7	2,81	0,2	0,001	385	7
Zn	70	37,28	0,53	920,50	13,45	63,70	0,91	93,93	1,34	36,0	0,51	102	1,46
Ga	15	18,89	1,26	178,69	11,91	21,40	1,43	20,08	1,34	20,0	1,33	88	5,87
As	1,8	19,83	11,2	20,03	11,1	9,00	5,11	0,05	0,03	8,0	4,78	17	9
Se	0,05	0,35	7	2,84	56,86	0,45	9	0,62	12,2	0,5	10	0,4	8,7
Mo	1,5	29,32	19,5	0,12	0,08	34,29	7,86	8	5,33	0,9	0,60	16	11
Ag	0,07	0,14	2	0,94	13,47	0,41	5,8	0,39	5,46	0,5	6,43	0,35	5
Cd	0,2	0,33	1,65	0,02	0,12	0,31	1,55	0,17	0,84	0,1	0,26	1,02	5,08
Sn	2	10,84	5,42	0,74	0,37	10,57	5,28	5,83	2,92	1,4	0,70	17	8,50
Sb	0,2	0,68	3,1	4,04	20,20	1,13	5,67	1,06	5,3	0,7	3,25	0,45	2,25
Te	0,001	0,00003	0,03	0,014	14	0,003	3	0,0002	0,10	0,004	4	0,038	38
W	1,5	5,86	3,91	0,58	0,38	9,64	6,42	2,68	1,78	2,0	1,33	6,40	4,27
Re	0,0007	0,01	16,33	0,003	4,2	0,002	3,43	0,003	4,7	0,0009	1,43	0,001	4,29
Au	0,004	0,0011	2,75	0,092	23	0,016	0,4	0,01	1,25	0,0051	1,25	0,062	7,2
Bi	0,017	0,006	0,35	0,094	5,6	0,056	3,3	0,13	7,26	0,003	0,26	0,51	30
U	2,7	31,53	11,4	0,15	0,06	15,54	5,2	6,68	2,47	0,8	0,30	0,72	0,26

Izoh: 1 – granodiorit-porfir (asosiy faza); 2 – granit-porfir (qo'shmcha faza); 3 – diorit-porfirit; 4 – minetta; 5 – kersantit; 6 – spessartit; *qavs ichida namunalari soni keltirilgan.

Nodir yer elementlari tarqalishining diagrammasi orqali Turbay maydonidagi intruziv tog' jinslarining magmatik rivojlanish evolyutsiyasining xossalarini aniqlash mumkin (3-rasm). Diagrammada ko'rinib turibdiki intruziv tog' jinslari yevropiy elementi minimumi yaqqol namoyon bo'lgan. Bu esa dala shpatlarning xususan plagioklazning saralanishi va granitoid massivlarning hosil bo'lishi yagona magmatik o'choq bilan bog'ligini ko'rsatadi. Eng muhimi, granit-porfirdan to kersantitgacha NYE miqdori oshib boradi (3-rasmga qarang). Bu holat ularning yagona majmua mahsulotlari ekanligidan dalolat beradi.



3-rasm. Turbay maydonidagi magmatik tog' jinslarida NYE tarqalishining spayder-diagrammasi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida “**Turbay maydoni metasomatik hosilalari, ularning hosil bo‘lish sharoitlari va petrokimyoviy tavsifi**” ga oid masalalarni tadqiq qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, metasomatik hosilalarning umumiy tavsifi, ma‘dandorligi, magmatik hamda postmagmatik mineral hosil bo‘lish bosqichlari ochib berilgan.


Alohida maydonlarni baholash uchun metasomatik hosilalarni o‘rganish, fatsiyal-zonalliklarini aniqlash katta ahamiyatga ega, bu batafsil qidirish va yo‘naltirilgan qidiruv-razvedka ishlarining samaradorligini oshirishga yordam beradi (Jarikov va b., 1998; Karabayev, 2017; va b.).

Turbay oltin koni hududidagi metasomatik jinslar mineral tarkibi va paragenetik assotsiatsiyalarining hosil bo‘lish xususiyatlarini batafsil o‘rganish asosida magmatik (magnezial skarnlar) va mineral shakllanishining postmagmatik bosqichlari (ohakli skarnlar, kvarts-dala shpatli metasomatitlar) bilan tavsiflanadi.

Mineral hosil bo‘lishining magmatik bosqichida granitoid tanalarning ekzokontakt oreollaridagi dolomitlar bo‘ylab magnezial skarnlar hosil bo‘lgan. Kokpatas svitasi karbonatli qatlamlari linzasimon ko‘rinishda bo‘lganligi sababli skarn tanalari ham ularga mos holatda shakllangan va ba‘zi joylarda karbonatli tog‘ jinslarining butun qalinligi skarnlashuvga uchragan, ularning qalinligi ba‘zan 3-5 metr ga, uzunligi o‘nlab metrlarga yetadi (4-rasm).

Magnezial skarnlarning mineral tarkibi asosan diopsid, kamroq forsterit, och yashil shpinel va karbonatlardan iborat bo‘lib, ularning hosil bo‘lish jarayonlari bilan ma‘danlashuv kuzatilmaydi.

Postmagmatik mineral hosil bo‘lishi bilan bog‘liq metasomatik hosilalar Sharqiy Bukantov tog‘larining oltin-nodir metalli konlarida asosiy ma‘dan hosil bo‘lish jarayonlarining ma‘lum bosqichlari majmua bilan bog‘liq. Metallogenik jihatdan ahamiyatiga ko‘ra Turbay konida postmagmatik sharoitda hosil bo‘lgan hosilalar sirasiga ohakli skarnlar va kvarts-dala shpatli metasomatitlar kiradi.



4-rasm. Magnezial skarnlarning diopsid-karbonatli va diopsidli zonalari. (a – parallel nikolda, b – kesishgan nikolda. Ko‘rish doirasi - 3 mm).

Ohakli skarnlar. Turbay konidagi ohakli skarnlar erta ishqorli bosqichdagi yuqori haroratli postmagmatik eritmalar ta‘siri zonasida, ilgari hosil bo‘lgan magnezial skarnlar va ohaktoshlar bo‘yicha granitoid intruziyalarning ekzokontakt zonasida hosil bo‘lgan. Ohakli skarnlarning asosiy qismi magnezial skarnlar bo‘yicha shakllangan va ularda alohida tomirlar shaklida joylashgan bo‘lib, ular o‘ziga xos metasomatik zonallik hosil qilib tarqalgan. Ohakli skarnlar piroksen

(salit), granat va karbonatlardan tashkil topgan, ularning kvarslashgan va amfibollashgan qismlarida kam miqdorda volfram ma'danlashuvi (sheelit) kuzatiladi.

